<b>Sharifxodjayev Shavkat Oqilovich</b> <b>Achilova Shirin Shavkat qizi</b>	



# “YASHIL IQTISODIYOT” BARQAROR RIVOJLANISHNING MUHIM YO‘NALISHI SIFATIDA (YEVROPA ITTIFOQI MISOLIDA)



**Sharifxodjayev Shavkat Oqilovich**  
Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti,  
Iqtisodiyot fanlari doktori (i.f.d.), professor  
ORCID: <https://orcid.org/0009-0009-9410-5121>



**Achilova Shirin Shavkat qizi**  
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,  
PhD, dotsent  
ORCID: <https://orcid.org/0009-0004-8248-3428>

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada iqlim o'zgarishi sharoitida “yashil iqtisodiyot”ni rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlari tahlil etilgan. Iqlim o'zgarishi global iqtisodiy va ekologik barqarorlikka jiddiy ta'sir ko'rsatuvchi omil sifatida ko'rib chiqiladi. Tadqiqotda O'zbekiston Respublikasida qabul qilingan ekologik siyosat va strategik hujjatlarning mazmuni o'rganilgan. Shuningdek, Yevropa Ittifoqi, Germaniya va Shvetsiya tajribalari qiyosiy tahlil qilingan.

“Yashil iqtisodiyot”ga o'tishning energiya samaradorligi hamda raqobatbardoshlikka ta'siri ochib berilgan. Tadqiqot natijasida qayta tiklanuvchi energiya manbalarining iqtisodiy ahamiyati asoslab berilgan. Shu asosda O'zbekiston uchun amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** yashil iqtisodiyot, barqaror rivojlanish, quyosh energetikasi, raqobatbardoshlik, energiya intensivligi, qayta tiklanuvchi energiya, ESG, panel tahlil.

**Abstract.** This article examines the theoretical and practical aspects of developing a green economy under conditions of climate change. Climate change is considered a major global challenge affecting economic and environmental stability. The study analyzes Uzbekistan's national strategies and policy frameworks related to environmental sustainability. A comparative analysis is conducted based on the experiences of the European Union, Germany, and Sweden.

Special attention is given to the impact of the green economic transition on energy efficiency and national competitiveness. The role of renewable energy sources in ensuring sustainable development is substantiated. On this basis, practical proposals for Uzbekistan have been developed.

**Keywords:** green economy, sustainable development, solar energy, competitiveness, energy intensity, renewable energy, ESG, panel analysis.

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются теоретические и практические аспекты развития «зелёной экономики» в условиях изменения климата. Изменение климата анализируется как один из ключевых глобальных вызовов современности, оказывающий влияние на экономическую и экологическую устойчивость. Исследуются стратегические документы Республики Узбекистан в области экологической политики и устойчивого развития. Проводится сравнительный анализ опыта Европейский союз, Германия и Швеция.

Особое внимание уделяется влиянию перехода к «зелёной экономике» на энергоэффективность и конкурентоспособность экономики. Обосновывается роль возобновляемых источников энергии в обеспечении устойчивого развития. На этой основе разработаны практические предложения для Узбекистана.

**Ключевые слова:** зеленая экономика, устойчивое развитие, солнечная энергия, конкурентоспособность, энергоёмкость, возобновляемая энергия, ESG, панельный анализ.



## KIRISH

Iqlim o'zgarishi bugungi kunga kelib insoniyat oldida turgan eng global va kechiktirib bo'lmaydigan muammolardan biriga aylanmoqda. Iqlim o'zgarishining salbiy oqibatlarini oldini olishning muhim yo'nalishlaridan biri — "yashil iqtisodiyot"ni rivojlantirish va "yashil" texnologiyalarni keng joriy etish hisoblanadi.

Mazkur yo'nalishda mamlakatimizda ham izchil amaliy chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, iqlim o'zgarishi bilan bog'liq muammolarni o'z vaqtida hal etish, ekologik xavflarning oldini olish hamda ularning oqibatlarini yumshatish maqsadida yagona davlat siyosatini shakllantirish va uning samarali ijrosini ta'minlash dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Shu nuqtai nazardan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 23-iyuldagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida Iqlim kengashini tashkil etish to'g'risida"gi PF-106-son Farmoni [1] hamda 2022–2026-yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekiston" taraqqiyot strategiyasida ekologik barqarorlik va "yashil iqtisodiyot" tamoyillarini ustuvor yo'nalish sifatida belgilanishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Bundan tashqari, 2019-yilda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining 2019–2030-yillarda yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi"da [2] iqtisodiyotning energiya sig'imini kamaytirish, ekologik xavfsizlikni kuchaytirish hamda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 16-fevraldagi PQ-57-son qarorida 2023–2030-yillarda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirishni jadallashtirish bo'yicha aniq chora-tadbirlar belgilab berilgan [3].

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Barqaror rivojlanish va "yashil iqtisodiyot" konsepsiyasi bo'yicha xorijiy adabiyotlarda John Elkington, Nicholas Stern hamda Donella Meadows kabi olimlar ekologik va iqtisodiy muvozanat masalalarini kompleks yondashuv asosida tahlil qilganlar.

Yevropa Ittifoqi doirasidagi tadqiqotlarda European Green Deal va Fit for 55 dasturlari asosiy ilmiy-amaliy model sifatida ko'rsatib o'tiladi. Germaniya va Shvetsiya tajribasi esa dekarbonizatsiya hamda qayta tiklanuvchi energiya siyosatining samarali mexanizmlarini ochib beradi.

Mahalliy olimlar, jumladan O'zbekiston iqtisodchilari tomonidan energiya samaradorligi, ekologik xavfsizlik va resurslardan oqilona foydalanish masalalari keng yoritilgan.

Mazkur maqolaning o'ziga xosligi shundaki, unda "yashil transformatsiya" faqat ekologik jarayon sifatida emas, balki iqtisodiy o'sish va investitsion jozibadorlikni ta'minlovchi muhim omil sifatida kompleks tarzda tahlil qilinadi.

## TADDIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda kompleks ilmiy yondashuv qo'llanildi. Asosiy metod sifatida tizimli tahlil orqali "yashil iqtisodiyot"ning nazariy asoslari va amaliy mexanizmlari o'rganildi.

Qiyosiy tahlil usuli yordamida O'zbekiston hamda Yevropa Ittifoqi mamlakatlari tajribalari o'zaro solishtirildi. Statistik ma'lumotlar asosida energiya samaradorligi va qayta tiklanuvchi energiya manbalari ulushining dinamikasi baholandi.

Shuningdek, induksiya va deduksiya usullari orqali umumiy ilmiy xulosalar shakllantirildi. Normativ-huquqiy hujjatlar tahlili asosida davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari aniqlashtirildi.

Mazkur metodologik yondashuv tadqiqot natijalarining ilmiy asoslanganligini ta'minlash bilan birga, ularning amaliy jihatdan qo'llanilish imkoniyatlarini kengaytiradi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

So'nggi yillarda xalqaro iqtisodiy raqobat faqat ishlab chiqarish hajmi yoki eksport salohiyati bilan emas, balki iqtisodiyotning energiya samaradorligi, ekologik barqarorligi hamda texnologik moslashuvchanligi bilan ham baholanmoqda. Shu jihatdan "yashil iqtisodiyot"ga o'tish bugungi kunda milliy raqobatbardoshlikni belgilovchi strategik omillardan biriga aylanmoqda.

Ayniqsa, energiya resurslaridan samarali foydalanish, uglerod chiqindilarini kamaytirish hamda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng joriy etish ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar tannarxini pasaytirish, investitsion jozibadorlikni oshirish hamda tashqi bozorlarda mahalliy mahsulotlarning raqobatbardoshligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Mazkur yo'nalishda Yevropa Ittifoqi tajribasini ilmiy jihatdan o'rganish, tahlil qilish va milliy sharoitga moslashtirish O'zbekiston uchun muhim amaliy ahamiyatga ega.



Ma'lumki, barqaror rivojlanish konsepsiyasi XX asrning oxirlarida jadal shakllana boshlagan. Global ekologik va ijtimoiy muammolarni yagona yondashuv asosida ko'rib chiqish zarurati ushbu konsepsiyaning shakllanishiga asos bo'lgan.

Xususan, 1992-yilda Rio-de-Janeyro shahrida bo'lib o'tgan Birlashgan Millatlar Tashkilotining "Atrof-muhit va rivojlanish" bo'yicha konferensiyasi barqaror rivojlanishni global siyosatning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etdi hamda Agenda 21 dasturini qabul qildi. Ushbu hujjatda barqaror rivojlanish tamoyillarini milliy rivojlanish strategiyalariga joriy etish zarurligi qayd etilgan [4].

So'nggi yillarda barqaror rivojlanish konsepsiyasi Birlashgan Millatlar Tashkiloti doirasida yanada tizimli shaklga ega bo'ldi. Xususan, 2015-yilda qabul qilingan Barqaror Taraqqiyot Maqsadlari (Sustainable Development Goals — SDGs) [5] barqaror rivojlanishni ta'minlash bo'yicha global miqyosdagi uzoq muddatli strategik yo'l xaritasi sifatida qabul qilindi. Mazkur maqsadlar iqtisodiy o'sish, ijtimoiy farovonlik va ekologik muvozanatni uyg'un holda ta'minlashga qaratilgan bo'lib, energiya, iqlim o'zgarishi hamda resurslardan samarali foydalanish kabi ustuvor yo'nalishlarni qamrab oladi.

Yevropa Ittifoqida "yashil iqtisodiyot"ga o'tish jarayoni alohida ekologik dastur yoki qisqa muddatli siyosiy tashabbus sifatida emas, balki butun iqtisodiy modelni transformatsiya qilishga qaratilgan uzoq muddatli strategik yo'nalish sifatida shakllanmoqda.

2015-yilda Parij kelishuvi qabul qilingach, Yevropa Ittifoqida iqlim o'zgarishi, energiya xavfsizligi va resurslar ta'minoti masalalari kun tartibida markaziy o'ringa chiqdi. 2019-yilda esa Yevropa Ittifoqi 2050-yilgacha iqlimiy neytrallikka erishishni strategik maqsad sifatida belgiladi.

2024-yil holatiga ko'ra, Yevropa Ittifoqi issiqxona gazlari chiqindilarini 1990-yil darajasiga nisbatan qariyb 37–40 foizga kamaytirishga erishdi. Bu ko'rsatkich 2022-yil uchun rejalashtirilgan 30 foizlik darajadan sezilarli darajada yuqoridir [6].

Mazkur ijobiy natijalar institutlararo muvofiqlashtirish, mustahkam huquqiy asos hamda barqaror moliyaviy mexanizmlar orqali ta'minlanmoqda.

Shuni ta'kidlash joizki, Yevropa Ittifoqining "yashil" siyosati faqat normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish va qabul qilish bilan cheklanmaydi. U o'zaro bog'langan bir nechta institutlar faoliyati orqali amalga oshiriladi. Har bir institut muayyan funksiyani bajaradi: biri tashabbusni ilgari suradi, boshqasi uni huquqiy jihatdan rasmiylashtiradi, yana biri siyosiy kelishuvni ta'minlaydi, moliyaviy institutlar esa amaliy ijroni qo'llab-quvvatlaydi.

Jumladan:

- Yevropa komissiyasi strategik tashabbuslarni ilgari surish va siyosat ishlab chiqish funksiyasini bajaradi;
- Yevropa parlamenti qonunchilik muhokamasi orqali normativ-huquqiy asosni shakllantirishda ishtirok etadi;
- Yevropa Ittifoqi Kengashi esa a'zo davlatlar darajasida siyosiy kelishuvni ta'minlab, yakuniy tasdiqlash jarayonini amalga oshiradi;
- Yevropa investitsiya banki ushbu jarayonning moliyaviy barqarorligini qo'llab-quvvatlaydi.

Bu holat Yevropa Yashil Kelishuvi Yevropa Ittifoqining iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy sohalarida barqaror rivojlanishni ta'minlashda tizimli yondashuvga ega ekanligini, ya'ni "maqsad – instrument – ijro" zanjiri amaliyotda samarali qo'llanilayotganini ko'rsatadi.

"Yashil Kelishuv"ning transformatsion modeli sifatidagi asosiy mexanizmlaridan biri 2021-yilda taqdim etilgan Fit for 55 paketi orqali amalga oshiriladi. Mazkur paket 2030-yilga borib Yevropa Ittifoqida issiqxona gazlari chiqindilarini kamida 55 foizga kamaytirish hamda 2050-yilga kelib iqlimiy neytrallikka erishishni nazarda tutuvchi kompleks qonunchilik choralari o'z ichiga oladi.

Ushbu qonunlar majmui iqtisodiyotning turli sektorlarini — energetika, transport, sanoat va qurilish sohalarini — yagona strategik maqsadga moslashtirishga qaratilgan. Xususan, EU Emissions Trading System (EU ETS)ni isloh qilish, energiya samaradorligini oshirish hamda qayta tiklanuvchi energiya siyosatini kuchaytirish kabi instrumentlar yagona paket doirasida uyg'unlashtirilgan. Bu yondashuv emissiyalarni kamaytirish faqat alohida sohada emas, balki barcha asosiy tarmoqlarda bir vaqtning o'zida amalga oshirilishini ta'minlaydi.

"Yashil iqtisodiyot"ga o'tish jarayonini Germaniya misolida ko'rib chiqadigan bo'lsak, ushbu yo'nalish aniq maqsadlar va qat'iy strategik yondashuv asosida amalga oshirilayotganini kuzatish mumkin. Germaniyada barqaror energiya bilan ta'minlash siyosati nafaqat emissiyalarni kamaytirishga, balki sanoat ishlab chiqarishini modernizatsiya qilishga, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini (quyosh va shamol energiyasi) keng joriy etishga hamda xalqaro raqobatbardoshlikni saqlab qolishga qaratilgan.

Boshqacha aytganda, Germaniyada dekarbonizatsiya ishlab chiqarishni qisqartirishni emas, balki uni energiya samaradorligi, ilg'or texnologiyalar va past uglerodli energiya manbalari asosida qayta tashkil etishni anglatadi.



Germaniya hukumati tomonidan 2030-yilgacha elektr energiyasi iste'molining kamida 80 foizini qayta tiklanuvchi energiya manbalari hisobidan qoplash vazifasining belgilanishi ushbu mamlakat yashil transformatsiyani jadallashtirish yo'lini izchil tanlaganini tasdiqlaydi.

Germaniyada qabul qilingan iqlim o'zgarishi to'g'risidagi federal qonunga ko'ra, mamlakat 2045-yilgacha issiqxona gazlari bo'yicha neytrallikka erishishi lozim. Yevropa Ittifoqida esa ushbu muddat 2050-yil etib belgilangan.

Germaniyaning "yashil iqtisodiyot"ga o'tish siyosati oddiy ekologik choralar bilan cheklanib qolmay, balki sanoatning keyingi rivojlanish bosqichini oldindan shakllantirishga qaratilgan. Xususan, mamlakat 2030-yilga borib qayta tiklanuvchi energiya manbalarining umumiy quvvatini 10 GVt (gigavatt)ga yetkazishni maqsad qilgan. Bu esa vodorod strategiyasining energetik xavfsizlikni ta'minlash, uglerod chiqindilarini kamaytirish hamda "yashil iqtisodiyot"ga o'tishdagi muhim rolini ko'rsatadi.

Shuni ta'kidlash lozimki, agar Germaniyada asosiy e'tibor yirik sanoat bazasini ekologik transformatsiya qilishga qaratilgan bo'lsa, Shvetsiyada ko'proq uzoq muddatli siyosat, iqtisodiy rag'batlantirish mexanizmlari va energiya tizimining past uglerodli tarkibiga erishish ustuvor hisoblanadi. Bu esa "yashil iqtisodiyot"ga o'tish jarayoni oldindan shakllangan institutsional mexanizmlar asosida olib borilayotganidan dalolat beradi.

Umuman olganda, Germaniya va Shvetsiya tajribasi Yevropa Ittifoqida "yashil iqtisodiyot"ga o'tish yagona yondashuv asosida emas, balki turli mamlakatlarning milliy sharoitlariga mos ravishda shakllanayotganini ko'rsatadi.

O'zbekistonda barqaror rivojlanish va "yashil iqtisodiyot"ga o'tish jarayonlari so'nggi yillarda davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Bunga mamlakatda energiya iste'molining ortib borishi, elektr energiyasiga bo'lgan talabning keskin oshishi, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish zarurati hamda iqlim bilan bog'liq xavflarning kuchayishi asosiy omil bo'lmoqda.

Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, yaqin 10 yil ichida O'zbekistonda elektr energiyasiga bo'lgan talab 135 milliard kVt-soatgacha yetishi prognoz qilinmoqda (2024-yilda bu ko'rsatkich 80 mlrd kVt-soatni tashkil etgan). Bu esa elektr energiyasiga bo'lgan talabning yiliga o'rtacha 8 foiz atrofida o'sishini anglatadi.

Mazkur holat "yashil iqtisodiyot"ga o'tish masalasini faqat ekologik jihatdan emas, balki iqtisodiy va energetik xavfsizlik nuqtayi nazaridan ham muhim strategik vazifaga aylantiradi.

Mazkur yo'nalishning huquqiy-institutsional asosi, avvalo, 2019-yil oktabr oyida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4477-son qarori bilan tasdiqlangan "2019–2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining 'yashil' iqtisodiyotga o'tish strategiyasi" asosida shakllandi.

Mazkur strategiyada tabiiy resurslardan samarali foydalanish, energiya samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng joriy etish, iqtisodiyot tarmoqlarida ekologik xavfsizlikni kuchaytirish hamda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash ustuvor yo'nalishlar sifatida belgilangan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 16-fevraldagi PQ-57-son qarori bilan 2023–2030-yillarda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirishni jadallashtirish bo'yicha aniq chora-tadbirlar belgilab berilgan.

Mazkur qaror quyosh va shamol energetikasini kengaytirish, xususiy investitsiyalarni jalb etish, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini rivojlantirish hamda elektr energiyasi ishlab chiqarishda qayta tiklanuvchi manbalar ulushini oshirishni nazarda tutadi. Biroq normativ-huquqiy asoslarning mavjudligi o'z-o'zidan yetarli natija bermaydi. Raqobatbardoshlikni real oshirish uchun energiya tizimining texnologik yangilanishi, energiya samaradorligini oshirish hamda quyosh energetikasini hududiy iqtisodiy rivojlanish bilan integratsiya qilish talab etiladi.

Yevropa Ittifoqi mamlakatlari tajribasi shuni ko'rsatadiki, "yashil iqtisodiyot"ga o'tish jarayoni faqat ekologik siyosat bilan cheklanmaydi, balki energetika, sanoat, moliya, transport va davlat boshqaruvini o'zaro bog'lagan kompleks model sifatida shakllanadi.

Yevropa Ittifoqida qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish strategik yo'nalish sifatida belgilangan bo'lib, 2024-yil holatiga ko'ra Ittifoq bo'yicha energiya iste'molida ushbu manbalar ulushi 25,2 foizga yetgan. Shvetsiyada esa bu ko'rsatkich 62,8 foizni tashkil etgan [7].

Shu bilan birga, 2030-yilga kelib qayta tiklanuvchi energiya ulushini kamida 42,5 foizga yetkazish maqsadi belgilangan. Bu holat Yevropa Ittifoqida "yashil iqtisodiyot" faqat umumiy konsepsiya emas, balki aniq ko'rsatkichlar va samarali ijro mexanizmlari bilan mustahkamlangan tizimli siyosat ekanini ko'rsatadi [8].

Yevropa Ittifoqi tajribasining birinchi muhim jihati — uzoq muddatli strategik maqsadlarni qisqa va o'rta muddatli rejalarga bog'lash mexanizmlarining amaliyotga joriy etilganligidadir. Masalan, Shvetsiyada 2017-yildan buyon amal qilayotgan iqlim siyosati doirasida 2045-yilgacha sof nol emissiyaga erishish vazifasi belgilangan. Yevropa Ittifoqi darajasida esa qayta tiklanuvchi energiya va energiya samaradorligi bo'yicha umumiy maqsadlar milliy darajadagi rejalarda hamda hisobot tizimlari orqali izchil amalga oshiriladi.

Mazkur yondashuv O'zbekiston uchun ham dolzarb hisoblanadi. Chunki mamlakatda 2022–2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasida qayta tiklanuvchi energiya ulushini 2026-yilga kelib 25 foizga yetkazish



(hozirda taxminan 21 foiz), shuningdek, iqtisodiyotning energiya samaradorligini 20 foizga oshirish vazifalari belgilangan. 2025-yilgi rasmiy ma'lumotlarga ko'ra esa 2030-yilgacha qayta tiklanuvchi energiya ulushini 54 foizga yetkazish rejalashtirilgan [9].

Demak, O'zbekiston uchun Yevropa Ittifoqi tajribasidan olinadigan eng muhim saboq — maqsadlarni faqat umumiy darajada belgilash bilan cheklanmasdan, ularni tarmoqlar, hududlar va mas'ul institutlar kesimida aniq "yo'l xaritalari"ga integratsiya qilish, hamda har yillik o'zgarishlarni hisobga olgan holda bosqichma-bosqich amalga oshirilishini ta'minlashdan iboratdir.

Yana bir muhim tajriba — "yashil" moliyalashtirishni standartlashtirishdir. Ya'ni, "yashil" investitsiyalarni kengaytirish uchun avvalo "yashil" loyihalarni aniq mezonlar asosida belgilab beruvchi moliyaviy va tasnifiy mexanizmlarni joriy etish zarur.

Umuman olganda, Yevropa Ittifoqi mamlakatlari tajribasini O'zbekiston sharoitida qo'llash masalasi "tayyor modelni to'liq ko'chirib olish" emas, balki uni tanlab moslashtirish yondashuvi asosida amalga oshirilishi lozim. Shu nuqtai nazardan, O'zbekiston uchun quyidagi ustuvor yo'nalishlarni ajratib ko'rsatish mumkin:

- birinchidan, qayta tiklanuvchi energiya bo'yicha maqsad va indikatorlarni tarmoqlar hamda hududlar kesimida yanada aniq belgilash;
- ikkinchidan, Germaniya tajribasiga o'xshash raqobatli auksionlar va davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini kengaytirish;
- uchinchidan, Shvetsiya tajribasidan kelib chiqib emissiyalarni hisobga olish tizimini joriy etish va bosqichma-bosqich iqtisodiy rag'batlantirish mexanizmlarini rivojlantirish;
- to'rtinchidan, Yevropa Ittifoqi taksonomiyasiga o'xshash "yashil" moliyalashtirish standartlarini chuqurlashtirish;
- beshinchidan, energiya samaradorligini oshirish va elektr tarmoqlarini modernizatsiya qilishni qayta tiklanuvchi energetika siyosatining ajralmas qismiga aylantirish.

Aynan shunday yondashuv O'zbekistonda "yashil iqtisodiyot"ning nafaqat son jihatdan, balki sifat jihatdan ham barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

O'zbekiston uchun "yashil iqtisodiyot" uzoq kelajakdagi mavhum yo'nalish emas, balki bugungi kundan boshlab bosqichma-bosqich shakllantirilishi zarur bo'lgan real rivojlanish modeli ekanini anglash muhimdir. Agar belgilangan strategik maqsadlar izchil amaliy chora-tadbirlar bilan mustahkamlab borilsa, "yashil iqtisodiyot" energetika tizimini modernizatsiya qilish, resurslardan samarali foydalanish, ekologik yuklamani kamaytirish hamda uzoq muddatli iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashning muhim omiliga aylanishi kutiladi.

O'zbekistonda "yashil iqtisodiyot"ning yaqin istiqboldagi rivoji faqat yangi energetika quvvatlarini ishga tushirish bilan cheklanmasdan, balki butun iqtisodiyotning sifat jihatdan yangilanishiga xizmat qilishi lozim. Ushbu yangilanishlar yaqin yillarda elektr ta'minoti barqarorligini oshirish, energiya manbalari tarkibini diversifikatsiya qilish, resurslardan samarali foydalanish va investitsiya faolligini kuchaytirish orqali amalga oshiriladi.

Mamlakatda 2030-yilgacha mo'ljallangan strategik yo'nalishlarning belgilanishi hamda izchil islohotlar dasturining amalga oshirilishi ushbu jarayonning tasodifiy emas, balki uzoq muddatli davlat siyosatiga asoslanganini ko'rsatadi.

Yaqin istiqbolda eng muhim o'zgarishlar energetika tizimi tarkibida yuz berishi kutilmoqda. Elektr energiyasiga bo'lgan talabning ortib borishi an'anaviy energiya modelini saqlab qolishni tobora murakkablashtiradi. Shu sharoitda quyosh, shamol va boshqa qayta tiklanuvchi energiya manbalari ulushining kengayishi energiya balansining bosqichma-bosqich diversifikatsiya qilinishiga olib keladi.

Natijada tabiiy gaz resurslariga bo'lgan yuklama kamayadi, energiya ta'minoti tizimi yanada barqaror shaklga o'tadi va energetik xavfsizlikni mustahkamlash uchun mustahkam asos yaratiladi.

Ayniqsa, qayta tiklanuvchi energiyani rivojlantirish va energiya tejoychi texnologiyalarni keng joriy etish bo'yicha qabul qilinayotgan amaliy chora-tadbirlar ushbu jarayonni jadallashtirishga xizmat qiladi. Bu o'zgarishlarning iqtisodiy jihati ham alohida ahamiyatga ega. "Yashil" rivojlanish resurslarni ko'proq sarflashga emas, balki ularni tejamkor va samarali ishlatishga asoslanadi.

Energiya samaradorligining oshishi ishlab chiqarishdagi yo'qotishlarni kamaytiradi, mahsulot tannarxini pasaytiradi va ayrim tarmoqlarning raqobatbardoshligini kuchaytiradi. Ayniqsa, elektr tarmoqlarini modernizatsiya qilish, energiya auditlarini joriy etish hamda energiya tejoychi texnologiyalarni keng qo'llash kutilayotgan ijobiy natijalarga tezkor erishish imkonini beradigan ustuvor yo'nalishlar hisoblanadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Yaqin kelajakda investitsiya muhiti ham sezilarli darajada o'zgarishi mumkin. "Yashil" loyihalar bo'yicha aniq maqsadlar va amaliy mexanizmlar mavjud bo'lsa, bu kichik biznes va xususiy tadbirkorlik uchun ham ijobiy signal vazifasini bajaradi. Shu nuqtai nazardan, davlat-xususiy sherikligi mexanizmlarini kengaytirish, raqobatli



tanlovlarni joriy etish, “yashil” moliyalashtirish instrumentlarini rivojlantirish hamda tarmoq infratuzilmasini modernizatsiya qilishga qaratilgan tashabbuslar yangi investitsiyalarni jalb etish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Mazkur jarayonning ta’siri faqat energetika sohasi bilan cheklanib qolmaydi. U transport, sanoat, qurilish va hududiy infratuzilma rivojiga ham ijobiy ta’sir ko’rsatadi. Natijada “yashil” iqtisodiyot nafaqat ekologik yo’nalish, balki iqtisodiy o’sishning yangi drayveri sifatida shakllanadi.

Mazkur sharoitda ilg’or xalqaro, xususan Yevropa tajribasini O’zbekiston sharoitiga moslashtirib qo’llash maqsadga muvofiqdir. Jumladan, quyidagi yo’nalishlarga alohida e’tibor qaratish zarur:

- qayta tiklanuvchi energiya bo’yicha raqobatli auksion mexanizmlarini joriy etish;
- davlat-xususiy sheriklik asosida investitsiya loyihalarini kengaytirish;
- “yashil” moliyalashtirish instrumentlarini rivojlantirish va standartlashtirish;
- energiya samaradorligi bo’yicha zamonaviy normativ talablarni joriy etish;
- elektr tarmoqlarini kompleks modernizatsiya qilish;
- investorlar uchun uzoq muddatli va barqaror siyosiy signalni shakllantirish.

Bunda asosiy e’tibor shunga qaratilishi lozimki, “yashil” iqtisodiyot faqat yangi energetika quvvatlarini yaratish bilan cheklanmasdan, balki boshqaruv tizimi, moliyalashtirish mexanizmlari, zamonaviy texnologiyalar va infratuzilma bilan uzviy bog’liq holda rivojlantirilishi zarur.

Umuman olganda, agar belgilangan strategik maqsadlar izchil amaliy chora-tadbirlar bilan mustahkamlanib borilsa, O’zbekistonda “yashil” iqtisodiyot energetika tizimini modernizatsiya qilish, resurslardan samarali foydalanish, ekologik yuklamani kamaytirish hamda uzoq muddatli iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashning muhim omiliga aylanishi kutiladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 23.07.2024 yildagi “O’zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida Iqlim kengashini tashkil etish to’g’risida”gi PF-106-sonli Farmoni, <https://lex.uz/docs/-7044889>

2. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 04.10.2019 yildagi “2019 — 2030-yillar davrida O’zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o’tish strategiyasini tasdiqlash to’g’risida”gi PQ-4477-sonli qarori, <https://lex.uz/docs/-4539502>

3. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 16.02.2023 yildagi “2023-yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejoychi texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ-57-sonli qarori, <https://lex.uz/uz/docs/-6385716>

4. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi “2022 — 2026-yillarga mo’ljallangan Yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to’g’risida”gi PF-60-sonli Farmoni, <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>

5. United Nations. (1992). *Agenda 21: United Nations Conference on Environment and Development, Rio de Janeiro, 1992* (Ch. 2, pp. 10–15). <https://sustainabledevelopment.un.org/content/documents/Agenda21.pdf>

6. United Nations. (2015). *Sustainable Development Goals (SDGs)*. <https://sdgs.un.org/goals>

7. Eurostat. (2024). *25.2% of energy EU used came from renewables*. <https://ec.europa.eu/eurostat/web/products-eurostat-news/w/ddn-20251218-2>

8. European Commission. *Renewable energy targets and rules*. [https://energy.ec.europa.eu/topics/renewable-energy/renewable-energy-directive-targets-and-rules/renewable-energy-targets\\_en](https://energy.ec.europa.eu/topics/renewable-energy/renewable-energy-directive-targets-and-rules/renewable-energy-targets_en)



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

**2026. № 4 (2)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>